



Volume 2, Issue 2(15), 2023

Journal of Physics and Technology Education



<https://phys-tech.jdpu.uz/>

Chief Editor:

Sharipov Shavkat Safarovich

Doctor of pedagogy, Professor, Rector of Jizzakh State Pedagogical University, Uzbekistan

Deputy Chief Editor:

Sodikov Khamid Makhmudovich

The Dean of the Faculty of Physics and Technological Education, dotsent

Orishev Jamshid Bahodirovich

Teacher of Jizzakh State Pedagogical University, Uzbekistan

Members of the editorial board:

Ubaydullaev Sadulla, dotsent

Ismailov Tuychi Djabbarovich, dotsent

Kholmatov Pardaboy Karabaevich, dotsent

Umarov Rakhim Tojievich, dotsent

Murtazaev Melibek Zakirovich, dotsent

Abduraimov Sherali Saidkarimovich, dotsent

Taylanov Nizom, senior teacher

Tagaev Khojamberdi, senior teacher

Tugalov Farkhod Karshibayevich, PhD

Alibaev Turgun Chindalievich, PhD

Yusupov Mukhammad Makhmudovich, PhD

Kurbonov Nuriddin Yaxyakulovich, PhD

Irmatov Fozil Muminovich, PhD

Editorial Representative:

Jamshid Orishev

Phone: +998974840479

e-mail:

jamshidorishev@gmail.com

**ONLINE ELECTRONIK
JOURNAL**

“Fizika va texnologik ta’lim” jurnali

Журнал “Физико-технологического образование”

“Journal of Physics and Technology Education”

Indexed By:



Published By:

<https://phys-tech.jdpu.uz/>
Jizzakh State Pedagogical University, Uzbekistan

Nashr kuni: 2023-04-25

FIZIKANI O‘QITISHDA KASBIY KOMPETENTLIK XUSUSIYATLARI

Zokirova Visola Utkir qizi

*Jizzax davlat pedagogika universiteti, Fizika o‘qitish metodikasi
yo‘nalishi magistri*

Annotasiya. Maqolada kasbiy kompetentlikni rivojlantirish muommolari va fizikani o‘qitish jarayonida kasbiy kompetentlikni shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: kompetentlik, ta’lim, interfaol metod, ko‘nikma,

Xalqimizning kelajagi, O‘zbekistonning istiqboli ko‘p jihatdan o‘qituvchilarga va ularning saviyasi, tayyorgarligi, fidoiyiligiga, yosh avlodni barkamol qilib voyaga yetkazish va tarbiyalash ishiga bo‘lgan munosabatiga bog‘liq.

Bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor o‘rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo‘lish har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo‘lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda. Xo‘sh, kompetentlik nima? Kasbiy kompetentlik negizida qanday sifatlar aks etadi? Pedagog o‘zida qanday kompetentlik sifatlarini yoritish zarur. Ayni o‘rinda shu va shunga yondosh g‘oyalar yuzasidan so‘z yuritiladi.

“Kompetentlik” tushunchasi ta’lim sohasiga psixologlarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik “noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘lly bilishni taqozo etadi.

Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish o‘quv rejadagi tabiiy-ilmiiy va gumanitar fanlar blokida keltirilgan fanlar orqali amalga oshiriladi. SHunga ko‘ra, mazkur keltirilgan maxsus kompetensiyalarga qo‘yilgan talablarni izohlaymiz.

1. Fizikaning konseptual asoslari, tabiat va texnologiyalardagi hodisalar va jarayonlarning fizik mohiyati, fundamental fizik qonunlar va nazariyalar haqidagi bilimlar tizimli ravishda o‘zlashtirilishi kerak.

2. Fizikaning boshqa gumanitar va tabiiy fanlar hamda qadriyatlar tizimidagi o‘rnini bilishi kerak.

3. Fizik eksperimentni tashkil etish va o‘tkazish usullari (laboratoriya, namoyish-tajriba, kompyuterda virtual eksperiment)ni qo‘llay olishi; kuzatish va tajribalar natijalarini nazariy tahlil qila olishi lozim.

4. O‘quvchilarga fanni o‘rgatishda turli ta’lim metodlarini tanlash, innovatsion usullarni qo‘llay olishlari zarur.

5. O‘quv jarayonini to‘g‘ri tashkil etishi, darsda va darsdan tashqari o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarda yuzaga keladigan muammolarni oqilona echishi, o‘quvchilar va ota-onalar bilan bo‘ladigan munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishi kerak.

Demak, bo‘lajak fizika o‘qituvchilarining maxsus kompetensiyalari va ularni rivojlantirish texnologiyasi modelining maxsus metodologik kompetensiyalar (MMK), maxsus eksperimental kompetensiyalar (MEK) va maxsus uslubiy kompetensiyalar (MUK)ni rivojlantirish ketma-ketligi ko‘rsatilgan modeli bo‘lajak fizika o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning metodik asosi ekanligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Savchuk V.P. Obrabotka rezultatov izmereniy. Fizicheskaya laboratoriya. CH.1: ucheb. posobie dlya studentov vuzov. – Odessa: ONPU, 2002. – S. 54.

2.Narolina V.I. Kompetentnostnyy podxod k sovremennomu professionalnomu obrazovaniyu i mejkulturnaya kommunikativnaya kompetentnost spetsialista // Mir obrazovaniya – obrazovanie v mire. – 2008. – № 4. – C. 3–12.

3.Filonova V.V. Variativnost metodov opredeleniya urovnya sformirovannosti mejkulturnoy kompetensii // Vestnik MGGU im. M.A. Sholoxova. Seriya: Pedagogika i psixologiya. – 2013. – № 2. – S. 58–61. 4.

Savchuk V.P. Obrabotka rezultatov izmereniy. Fizicheskaya laboratoriya. CH.1: ucheb. posobie dlya studentov vuzov. – Odessa: ONPU, 2002. – S. 54.

5. Granin YU. Obrazovanie v kontekste globalizatsii // Vestnik obrazovaniya v Rossii. – 2004. – № 12. – S. 7–9.

6. Devis E. Texnognozis. – Ultra. Kultura, 2008 – S. 918. 7. Groxolskaya O.G. Professionalnoe i lichnostnoe stanovlenie budushchego spetsialista. – M.: URAO, 2007. – S. 82.